

MIRZO ULUG'BEK VORISLARI” RESPUBLIKA TANLOVINING TUMAN BOSQICHI G'OLIBLARI TAQDIRLANDI

Yoshlarning ilm-fan, innovatsiya va ixtirochilik sohaslaridagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularning istiqbolli g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida yurtimizda qator tanlov va loyihalar amalga oshirilmoqda. Ana shunday nufuzli tanlovlardan biri bo'lgan “Mirzo Ulug'bek vorislari” Respublika tanlovi iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish hamda innovatsion tashabbuslarini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jam'armasi faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30-sonli hamda Jizzax viloyati hokimining 2022-yil 4-fevraldagi 60-3-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlov viloyatimiz yoshlarining ilmiy va innovatsion salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Joriy yilning 27-mart kuni Yangiobod tumani Madaniyat markazi binosida “Mirzo Ulug'bek vorislari” Respublika tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tumandagi ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalari talabalari, yosh tadqiqotchilar va innovatorlar o'zlarining ilmiy ishlarni, zamonaviy texnologiyalar asosidagi loyihalarini hamda innovatsion g'oyalari bilan ishtirok etdilar.

VATAN HIMOYACHISINI TARBIIYALAGAN OTA-ONAGA TASHAKKURNOMA TOPSHIRILDI

Yurtimizda Vatan himoyachilariga yuksak ehtirom ko'rsatish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy xizmatni sharaflari burch sifatida targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada harbiy xizmatni namunali tarzda o'tayotgan askarlar va ularni tarbiyalagan ota-onalarni rag'batlantirish e'zgu an'anaga aylanib bormoqda.

Yoshlar harbiy xizmatni sharaflari burch sifatida targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada harbiy xizmatni namunali tarzda o'tayotgan askarlar va ularni tarbiyalagan ota-onalarni rag'batlantirish e'zgu an'anaga aylanib bormoqda.

Tashakkurnoma topshirildi.

Tadbirida 9225-harbiy qism zobitlari, tuman hokimining o'rinbosari A. Nishonov, Yoshlar ishlari agentligi Yangiobod tuman bo'limi vakillari, mahalla faollari, mahalla yettilligi a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Marosim davomida harbiy qism qo'mondonligi tomonidan yo'llangan tashakkurnoma o'qib eshittirildi. Unda askar Muzaffarbek Musurmonqulovning harbiy xizmat davomida o'zining intizomi, mas'uliyati, bilim va ko'nikmalari, buyruqlarga so'zsiz amal qilishi hamda Vatanga bo'lgan sadoqati bilan tengdoshlari orasida namuna bo'layotgani alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, harbiy qism rahbariyati tomonidan yosh askarning ana shunday fazilatlarini egallashida ota-onasining o'rni beqiyos ekani qayd etilib, farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashgani, Vatanga sodiq, ma'naviy barkamol va fidoyi o'g'lini voyaga yetkazgani uchun samimiy minnatdorlik bildirildi.

Tadbirida so'zga chiqqanlar mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi va davlatimiz sarhadlari daxlsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifani ado etayotgan harbiy xizmatchilar bilan

Tashakkurnoma topshirildi.

Tadbirida 9225-harbiy qism zobitlari, tuman hokimining o'rinbosari A. Nishonov, Yoshlar ishlari agentligi Yangiobod tuman bo'limi vakillari, mahalla faollari, mahalla yettilligi a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Tashakkurnoma topshirildi.

Tadbirida 9225-harbiy qism zobitlari, tuman hokimining o'rinbosari A. Nishonov, Yoshlar ishlari agentligi Yangiobod tuman bo'limi vakillari, mahalla faollari, mahalla yettilligi a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Tashakkurnoma topshirildi.

Tadbirida 9225-harbiy qism zobitlari, tuman hokimining o'rinbosari A. Nishonov, Yoshlar ishlari agentligi Yangiobod tuman bo'limi vakillari, mahalla faollari, mahalla yettilligi a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Tashakkurnoma topshirildi.

Tadbirida 9225-harbiy qism zobitlari, tuman hokimining o'rinbosari A. Nishonov, Yoshlar ishlari agentligi Yangiobod tuman bo'limi vakillari, mahalla faollari, mahalla yettilligi a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI

MUASSIS:

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI

Bosh muharrir:

A. MUHAMMADIYEV

Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan ro'yhatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Ibrohim QARSHIBOYEV
Azizbek NISHIONOV
Valijon XASANOV
Beknazar TOSHBOYEV
Olimjon BEGMATOV
Fozil HAMROYEV

TELEFON:

+998 72 542-11-31

NASHR UCHUN MAS'UL:

A. MUHAMMADIYEV

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qog'oz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 200 nusxada chop etildi.

Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy ko'chasi, 4-uy.

Bosishga ruhsat etildi 25.06.2026-yil BUYURTMA №

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY, MA'RIFIY GAZETASI

8-son (68) 25-iyun 2026-yil, payshanba	Ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy gazeta	Bahosi erkin narxda	Gazeta 2019-yil yanvardan chiqa boshladi
--	-----------------------------------	---------------------	--

JIZZAX VILOYATI YANGIOBOD TUMANI TEXNIKUMI GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH TARG'IBOTIGA FAOL HISSA QO'SHMOQDA

2026-yil 26-iyun — Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurashish kuni munosabati bilan Jizzax viloyati Yangiobod tumani texnikumida “Giyohvandlikka yo'q deymiz!” shiori ostida keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy tadbir va chellenj tashkil etildi. Mazkur tadbir yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni giyohvandlik, psixotrop moddalar va boshqa zararli illatlarning salbiy oqibatlaridan ogoh etish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan bilan ahamiyatli bo'ldi.

Jizzax viloyati Yangiobod tumani texnikumida giyohvandlikka qarshi kurashish kuni munosabati bilan tadbir o'tkazildi. Yoshlar sporting turli yo'nalishlarida o'z mahoratlarini namoyish etib, sog'lom hayot sari intilish va zararli odatlardan yiroq bo'lish har bir insonning muhim vazifasi ekanligini amalda ko'rsatdilar.

Tadbir davomida ishtirokchilar tomonidan “Biz giyohvandlikka qarshimiz!”, “Sog'lom yoshlar — Yangi O'zbekiston kelajagi”, “Sog'lom hayot — baxtli hayot” kabi shiorlar ostida targ'ibot ishlari olib borildi. Yoshlar tomonidan tayyorlangan chiqishlarda giyohvandlikning inson salomatligi, oilaviy muhit va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Shundan so'ng texnikumda ichki ishlar organlari xodimlari, yoshlar yetakchisi hamda o'quvchilar ishtirokida davra suhbat tashkil etildi. Ochiq muloqot tarzida o'tgan suhbat davomida mutaxassislar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning inson organizmiga yetkazadigan zararli ta'siri, ularga qaramlikning kelib chiqish sabablari, huquqiy javobgarlik masalalari hamda yoshlarni bu kabi illatlardan asrash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berdilar.

Alohida ta'kidlanganidek, giyohvandlik nafaqat bir insonning sog'lig'i va kelajagiga, balki uning oilasi, yaqinlari va butun jamiyat taraqqiyotiga jiddiy zarar yetkazuvchi xavfli illat hisoblanadi. Shu bois yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni sportga, kitobxonlikka, kasb-hunar egallashga va mazmunli hordiq chiqarishga yo'naltirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Davra suhbatida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mutaxassislarga murojaat qildilar. Savollarga atroflicha javob berilib, yoshlar orasida uchrashi mumkin bo'lgan turli xavf-xatarlarning oldini olish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan noqonuniy takliflarga nisbatan ogohligni kuchaytirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Tadbir yakunida barcha ishtirokchilar giyohvandlikka qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va yoshlar orasida ma'naviy muhitni yanada mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishga chaqirildi. “Giyohvandlikka yo'q deymiz!” shiori ostida o'tkazilgan ushbu tadbir yoshlarning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilgan muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan biri bo'ldi.

Yangiobod tumani texnikumi matbuot xizmati.

Kitobxonlarni kitob o'qishga qiziqtirish – ma'naviy taraqqiyot garovi

Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kitob mutolaasiga jalb qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kitob insonning dunyoqarashini kengaytiradi, tafakkurini boyitadi va ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Jizzax viloyati Yangiobod tumani texnikumida kitobxonlarni kitob o'qishga qiziqtirish kuni munosabati bilan tadbir o'tkazildi. Yoshlar kitobxonlarni kitob o'qishga qiziqtirish har bir kutubxona, ta'lim muassasasi va oila oldida turgan dolzarb masaladir.

Kitob o'qishga qiziqtirish har bir kutubxona, ta'lim muassasasi va oila oldida turgan dolzarb masaladir.

Kitob o'qishga qiziqtirish har bir kutubxona, ta'lim muassasasi va oila oldida turgan dolzarb masaladir.

Boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lib, muntazam kitob mutolaa qilsalar, bolalarda ham kitobga mehr uyg'onadi. Uy sharoitida

Boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lib, muntazam kitob mutolaa qilsalar, bolalarda ham kitobga mehr uyg'onadi. Uy sharoitida

Boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lib, muntazam kitob mutolaa qilsalar, bolalarda ham kitobga mehr uyg'onadi. Uy sharoitida

Boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lib, muntazam kitob mutolaa qilsalar, bolalarda ham kitobga mehr uyg'onadi. Uy sharoitida

Boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lib, muntazam kitob mutolaa qilsalar, bolalarda ham kitobga mehr uyg'onadi. Uy sharoitida

Boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lib, muntazam kitob mutolaa qilsalar, bolalarda ham kitobga mehr uyg'onadi. Uy sharoitida

Boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lib, muntazam kitob mutolaa qilsalar, bolalarda ham kitobga mehr uyg'onadi. Uy sharoitida

M.Mansurova
Yangiobod tumani axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmat rahbari

QONUNCHILIKDA YOSHLARGA BERILGAN AYRIM IMTIYOZLAR

Mehnat kodeksida yoshlar uchun alohida kafolatlar belgilangan, jumladan 16 dan 18 yoshgacha bo'lganlar uchun ish vaqti haftasiga 36 soatdan oshmasligi lozim.

Muddatli harbiy xizmatni o'tagan va kontrakt bo'yicha



o'qiyotgan ijtimoiy faol talabalarga kontrakt summasining 35 foizi to'lab beriladi.

Kontrakt asosida o'qiyotgan talabalarga ta'lim krediti beriladi.

Yoshlar muammolari bilan ishlashning yangicha tizimi-

“Yoshlar daftari” ishga tushirilgan.

“Yoshlar daftari” ga kiritilganlarning nogiron oila aʼzolariga dori-darmon, nogironlik aravachalari, eshitish apparatlari va ortopedik mahsulotlar xarid qilish uchun BHMning 5 baravari miqdorida yordam koʻrsatiladi.

Nogironligi bo'lgan yoshlarga o'qish, yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun 15 mln. so'lgacha subsidiya ajratiladi.

Davlat oliy ta'lim muassasalariga kirishda eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti joriy qilingan.

Ijtimoiy faol yoshlarga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda imtiyozlar beriladi.

Mahalladagi yoshlar yetakchilari tavsiyasi asosida yoshlarga 20 turdagi yordam beriladi.

Ayrim yoshlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan to'lovlardan ozod etiladi.

“Moziyga sayohat” dasturi doirasida “Yoshlar daftari”ga kiritilganlar davlat muzeylariga bepul kiritiladi. Xorijdagi yosh vatandoshlarning vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda ishlashi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Jaxongir Maxmutbayevich Abduxoliquv
Yangiobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

MEHNATGA HAQ TO'LASH MASALALARI VA USHBU NIZOLARNI OLDINI OLISH YO'LLARI

Ma'lumki, xodim va ish beruvchi o'rtasidagi taraflarning o'zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo'lmish mehnat shartnomasida unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini ko'zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat qoidalariga rioya etish majburiyatini, ish beruvchi esa xodimga shartlashilgan mehnat vazifasi bo'yicha ish berish, xodimga ish haqini o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lash, mehnat to'g'risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va ushbu kelishuvda nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi, ya'ni mehnatga haq to'lash mehnat munosabatlarning eng asosiy sharti hisoblanadi.

Biroq ayrim hollarda ish beruvchilar tomonidan xodimlarga ular tomonidan bajarilgan mehnati uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq belgilangan kafolatlar asosida va o'z vaqtida haq to'lmamaslik holatlari kuzatilmoqda va buning natijasida sudlarda mehnat nizolari bilan bog'liq ishlar ortib bormoqda.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 253-moddasiga ko'ra, xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, o'n olti kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda (bo'nakda va qolgan qismi miqdorida) to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ish haqi oyiga bir marta to'lanadigan xodimlarning ayrim toifalari belgilanishi mumkin. Ish haqi to'lanadigan kun dam olish kuniga yoki ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelib qolganda ish haqi ushbu kunlar arafasida to'lanadi. Xodimga tegishli bo'lgan ish haqining o'z vaqtida to'lanishi va miqdori boshqa to'lovlarni amalga oshirishga hamda ularning navbatiga bog'liq qilib qo'yilmasligi kerak. Ish beruvchi xodimning so'roviga ko'ra uni ish beruvchi tomonidan xodimning ish haqini hisob-kitob qilish chog'ida amalga oshirilgan hisoblashlar va ushlab qolishlar to'g'risida xabardor qilishi shart. Ish beruvchi ish haqini to'lash kechiktirilganligi uchun xodim oldida ushbu Kodeksning 333-moddasida belgilangan miqdorda moddiy javobgar

bo'lishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu Kodeksning 254-moddasiga asosan, mehnat shartnomasi bekor qilinganda ish beruvchidan xodimga berilishi kerak bo'lgan barcha summalarini to'lash xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni amalga oshiriladi. Agar xodim mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni ishlamagan bo'lsa, tegishli summalar ushbu xodim tomonidan hisob-kitob qilish to'g'risidagi talab taqdim etilganidan keyin uch kundan kechiktirmay to'lanishi kerak. Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga tegishli bo'lgan summalar miqdorlari to'g'risida nizo chiqqan taqdirda, ish beruvchi xodimga shak-shubhasiz tegadigan summani ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddatda to'lashi shart. Ichki hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda xodim, agar u hatto mukofot to'lanayotgan paytda yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarda bo'lmasa ham, bir yildagi ish yakunlariga ko'ra mukofot olish huquqiga ega bo'ladi.

Aks holda. ish beruvchilar tomonidan mazkur talablarning buzilishi ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (<https://old.lex.uz/docs/97664>)ning 49-moddasida nazarda tutilgan mansabdor shaxs tomonidan mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ularga nisbatan bazaviy hisoblash miqdoring besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solish bilan bog'liq oqibatlar keltirib chiqaradi.

Bundan ko'rinadiki, xodimlarning mehnatga oid huquqlari, ya'ni bajargan mehnatlari uchun belgilangan muddatlarda haq olishga oid huquqlari qonun bilan kafolatlangan bo'lib, ish beruvchilar tomonidan o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishlari ushbu toifadagi nizolarning oldi olinishiga omil bo'ladi.

Zero, muhtaram Prezidentimiz takidlaganidek “Har bir insonning dardu tashvishi bilan yashash eng asosiy vazifamiz bo'lmog'i lozim” – degan shiorga amal qilib, o'z vazifalarimizni vijdonan bajarish va bu bilan Yangi O'zbekistonimizning ravnaqiga o'z hissamizni qo'shish barchamizning eng asosiy burchimizdir.

Dj.Esanov

Jizzax viloyat sudining sudyasi

KAFILLIK: YAXSHILIKMI YOKI HUQUQIY TAVAKKALCHILIK?

Ma'lumki, hozirgi kunda kredit shartnomasi bo'yicha qarzdorlikni undirish bilan bog'liq nizolar fuqarolik sudlarda juda ko'p uchrayotganligi va undirilayotgan so'mmalar yuzasidan kafilning ham javobgarligi belgilanishi natijasida sud majlisi jarayonlarida ular tomonidan norozilik bildirilishi ko'p uchramoqda.

Shu sababli, fuqarolarga ushbu toifadagi ishlar yuzasidan huquqiy tushuncha berishimizga zarurat yuzaga keltirmoqda.

Jumladan kafillik o'zi nima, ular qonunchilikdagi majburiyatlari qanaqa, kafillik shartnomasi (fuqarolarga) taraflarga qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishiga to'xtalib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga ko'ra, kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi.

Ya'ni bu bizning bank oldida qarzdor agar o'z majburiyatlarini bajarishiga men kafil bo'laman, xalq tilida oddiy qilib aytganda (Shu inson uchun men turib beraman, u o'z qarzini qaytarolmasa men o'rtaga tushib bo'lsa ham qaytaraman yoki o'zim qaytaraman) deb kafillik shartnomasi tuzish vaqtimizda shartnomada olgan majburiyatlarimiz asosida yuzaga keladigan holat hisoblanadi.

Xo'sh, ushbu majburiyatimiz qonunchiligimizda qanday o'z aksini topgan? Agar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 293-moddasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob berishi, basharti qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilgan bo'lmasa. Basharti, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan foizlar to'laydi, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditor ko'pgan boshqa zararlarni to'lashi, agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa,

birgalashib kafil bo'lgan shaxslar kreditor oldida solidar javob berishi bilan bog'liq kafilning javobgarligi belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Biroq, ko'pchilik hollarda bilamizki mijoz kredit oluvchi taraf kredit qarzini o'z vaqtida qaytarmasdan shartnoma shartlarini buzishligi bugungi kunda ko'p uchramoqda.

Natijada bu holat, banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 293-moddasiga muvofiq ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzishi holati bilan kafilning olgan majburiyatlari bo'yicha kredit shartnomasi bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni undirish yuzasidan kafillarning ham bab-baravar javobgar sifatida da'vo arizalar kiritilishiga olib kelmoqda.

Vaholanki, shartnomada shartlashuvchi tomonlarning o'z huquq va majburiyatlarini aniqlashturuvchi ustuvor hujjat hisoblanadi va uni bajarmaslik ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni qoplash hamda bunga (boy berilgan foydani undirish bilan bog'liq holatlar foizlarni undirish ham qirishi mumkin) bilan bog'liq oqibatlarni keltirib chiqaradi va kafilga ham bu bevosita uchunchi shaxs sifatida olgan majburiyatlari bo'yicha javobgarlik keltirib chiqaradi

Shunday ekan har birimiz kimgadir ishonch bildirishdan oldin, olayotgan majburiyatlarimiz haqida yaxshilab tushunib olishimiz, ishonchli bo'lmagan odamlarga aldanib qolib, afsus chekib yurmasligimiz uchun shartnomaga qo'l qo'yishdan oldin yaxshilab fikr-mulohaza qilmog'imiz lozim ekan. Zero, dono xalqimiz “So'ngi pushaymon o'zinga dushman” deb bejizga eskitdan aytib kelishmagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kredit shartnomalari bo'yicha fuqarolar tomonidan o'zlari olgan majburiyatlarga e'tiborli bo'lishlari shartnomalarni sud tartibida bekor qilinish holatlari bilan bog'liq huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaslikka xizmat qiladi deyish mumkin.

M.Zulfuqorov
Jizzax viloyat sudining sudyasi

KREDIT OLDINGIZMI? SHARTNOMA SHARTLARINI UNUTMANG!

Ma'lumki, hozirgi kunda kredit shartnomasini bekor qilish bilan bog'liq nizolar fuqarolik sudlarida juda ko'p uchrayotganligi fuqarolarga ushbu toifadagi ishlar yuzasidan huquqiy tushuncha berishimizga zarurat yuzaga keltirmoqda.

Shu munosabat bilan kredit shartnomari o'zi nima ular sud tartibida bekor qilish asoslari qanaqa hamda shartnoma bekor qilinishi (fuqarolarga) taraflarga qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishiga to'xtalib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 744-moddasiga ko'ra, kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditör) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Ya'ni bu bizning bankga mijoz sifatida borib kredit olish vaqtimizda shartnomada olgan majburiyatlarimiz asosida yuzaga keladigan holat hisoblanadi.

Bunga misol uchun, kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish kunlari hamda shartnomani qachongacha amal qilishi, bankning kredit mablag'ini ajratishi va hokozolar kirishi mumkin.

Biroq, ko'pchilik hollarda bilamizki mijoz kredit oluvchi taraf kredit

qarzini o'z vaqtida qaytarmasdan shartnoma shartlarini buzishligi bugungi kunda ko'p uchramoqda.

Natijada bu holat, banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasiga muvofiq ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzishi holati bilan shartnomani sud tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilish bo'yicha ko'plab da'vo arizalar kiritilishiga olib kelmoqda.

Vaholanki, shartnoma shartlashuvchi tomonlarning o'z huquq va majburiyatlarini aniqlashturuvchi ustuvor hujjat hisoblanadi va uni bajarmaslik ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni qoplash hamda bunga (boy berilgan foydani undirish bilan bog'liq holatlar foizlarni undirish ham qirishi mumkin) bilan bog'liq oqibatlarni keltirib chiqaradi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kredit shartnomalari bo'yicha fuqarolar tomonidan o'zlari olgan majburiyatlarga e'tiborli bo'lishlari shartnomalarni sud tartibida bekor qilinish holatlarini oldini olishga xizmat qiladi deyish mumkin.

Shu bois, har birimizning o'z huquq va majburiyatlarimizga tartib intizom asosida yondashishimiz, yuz berishi mumkin bo'lgan har xil tushunmoqchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

G'.Usanov

Jizzax viloyat sudining sudyasi

R.Qo'shboqov

Fuqarolik ishlari bo'yicha Zarbdor tumanlararo sudi sudyasi

JADIDLARING TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHATLARI	fanga muhabbat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratgan.
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ma'rifat, ilm-fan va taraqqiyot g'oyalari ni tang'ib qilgan jadidchilik harakati vujudga keldi. Jadidchilik arabcha “jadid” – “yangi” soʻzidan olingan boʻlib, yangi usuldagi taʼlim va zamonaviy taraqqiyot tara fdorlarini anglatadi. Bu harakat xalqni savodli qilish, milliy ong ni uygʻotish va jamiyatni rivojlantirishni oʻzoldiga maqsad qilib qoʻygan.	Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari oʻzbek pedagogik tafakkurining mu him namunalaridan biridir. Shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxonov ham jadidchilik harakatining faol vakillaridan biri boʻlgan. U yangi usul maktablarini ochib, taʼlim tizimini isloh qilish uchun kurashgan. Jadid adabiyotining yorqin vakillaridan Abdulhamid Choʻlpon va Abdurauf Fitrat ham xalqni uygʻonish va taraqqiyot sari undagan asarlar yaratganlar. Jadidchilik harakatining ahamiyati Jadidlar xalqning savodxonligini oshirish, zamonaviy fanlarni oʻqitish, matbuotni rivojlantirish va milliy oʻzlikni anglashga katta hissa qoʻshdilar. Ular maktablar ochib, gazeta va jumallar nashr etdilar, teatr sanʼatini rivojlantirdilar hamda xalqni taraqqiyot sari yetaklashga harakat qildilar.
Jadidchilik harakatining asoschilari Jadidchilik harakatining gʻoyaviy asoschisi sifatida Ismoil Gʻaspirali tan olinadi. U 1883-yilda “Tarjimon” gazetasi ni tashkil etib, musulmon xalqlari orasida maʼrifat va taraqqiyot gʻoyalarini keng tangʻib qilgan. Gʻaspirali “Til, fikr va ishd a birlik” shiorini ilgari surib, yangi usul maktablarini ochishga katta hissa qoʻshgan. Turkistonda jadidchilik harakatining rivojlanishida Mahmudxoʻja Behbudiy alohida oʻrin tutadi. U pedagog, dramaturg va jurnalist sifatida xalqni ilm-maʼrifatga chorlagan. Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil etib, darsliklar yaratgan hamda milliy matbuot rivojiga katta hissa qoʻshgan. Jadidchilikning yana bir yirik namoyandasi Abdulla Avloniy boʻlib, uyosh avlodni vatanparvarlik va ilm-	Jadidchilik harakati Oʻzbekiston tarixida mu him oʻrin egallaydi. Uning asoschilari va namoyandalari xalq maʼrifati, milliy uygʻonish va taraqqiyot yoʻlida fidokorona xizmat qildilar. Ularning ilmiy, adabiy va maʼrifiy merosi bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan va yosh avlodni bilim olishga, Vatanga xizmat qilishga undab kelmoqda.

Jadidlar xotirasiga
Jadidlar – elning uygʻoq farzandi, Ilm yoʻlida yongan qalblari. Maʼrifat nurin taratib har yon, Yorugʻ etgan xalqning yoʻllari. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Choʻlpon, El dardi bilan yashagan doim. Ozodlik, taraqqiyotni kuylab, Xalq uchun qilgan xizmatlari buyuk. Qalamlari boʻldi ularga qurol, Jaholatga qarshi kurashdilar. Yangi maktab, yangi fikr bilan, Kelajak sari yoʻl o chdilar. Nomlari yashar qalblarda mangu, Merosi bizga bebaho xazina. Jadidlar ruhi chorlar bizlarni, Ilm va e zgulik sari hamisha.
M.Mansurova Yangiobod tumani axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmat rahbari